

**2025-yil davomida "Biokimyo" AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT**

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan va "Biokimyo" AJ boshqaruv organining 2024 yil 18 dekabr kunidagi 17-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilgan. <i>(2022 yil 27 may kunda 32-sonli buyruq asosida Ungarbayeva Zulfiya Vaxabovna bilan kelishishildi)</i>
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi .	"BIOKIMYO" AJda raqobat to'g'risidagi qonunchiligi xujjatlarini buzilish ehtimolini baholash maqsadida, jamiyatning rasmiy veb-saytini virtual qabulxonasida "Raqobat cheklanishi to'g'risida habar ber" interaktiv tugmachasi 2022 yilda yaratilgan.
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	2025 yil davomida "Biokimyo" AJda qonunbuzilishlar va kamchiliklar aniqlanmadi. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik

		talablarining buzilishini oldini olish maqsadida jamiyatda kuyidagi me'yoriy xujjatlar ishlab chiqildi: 1. 2025 yili uchun ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"; 2. "Kirib kelgan tovarlarni soni va sifatlarni nazorat komissiyasi haqida" 2025 yil 3 yanvar kunidagi 5-sonli buyrug'i; 3. "Kirib kelgan xomashyo, materiallarni qabul qilish komissiyasini tuzish haqida" 2025 yil 3 yanvar kunidagi 8-sonli buyrug'i; 4. "Tuzilgan shartnomalarni nazorat qilish komissiyasini tayinlash to'g'risida" 2025 yil 3 yanvar kunidagi 12-sonli buyrug'i; 5. "Tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish bo'yicha doimiy xarid komissiyasi tashkil etish to'g'risida " 2025 yil 3 yanvar kunidagi 50-sonli buyrug'i.
5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi .	2025 yil davomida Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanmadi.
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	"Biokimyo" AJda 2025 yilda raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillar aniqlanmadi.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qabul qilinadigan "ichki hujjatlarning" qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalari o'rganib chiqildi, kamchiliklar aniqlanmadi.

8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida o'zgartirishlar 2025 yilda bo'lmaganligi sababli, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilmadi.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	2024 yilning 23-25 oktyabr kunlarida Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi tomonidan "Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqlashtirish" mavzusida tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirish hamda sohaga doir bilim va salohiyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'quv kurslarida – Toshpo'latov Shavkat Toshpo'latovich o'qitildi. (000201-sonli sertifikat).
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan xabardorligini oshirish maqsadida o'quv seminari "Biokimyo" Ajda 2025 yil 9 oktyabr kunida o'tkazildi. O'quv yakuni bo'yicha 17-sonli bayonnoma tuzildi va ruyxatga olindi.
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarga chiqishlar hisobot yil davomida zaruriyati bo'lmadi.

Izoh: Hisobot taqdim etilishida har bir vazifa bo'yicha amalga oshirilgan ishlar aniq raqamlar va tasdiqlangan isbotlovchi hujjatlar bilan taqdim etilishi lozim.

Komplayens xizmati boshligi



Z.V. Ungarbayeva